HYUNDAI

TUCSON



Bir chekkada turmang, ajralib turing!

Butunlay yangi Tucson - model tarixida transport vositasini haydashning yangi davri boshlanganligidan dalolat beradi. Haydash va qulaylik uchun takrorlanmas yondashuv. O'ziga xos, yorqin, xarizmatik, u odatiy narsalarni rad etadi va har bir detalga yangicha qarashni taklif qilgan holda, krossover segmentining chegaralarini kengaytiradi. Avtomobilning tashqi ko'rinishi unutilmas taassurot qoldiradi. Salonning keng interyeri, yuqori darajadagi qulaylik va bir vaqtning o'zida amaliylik barcha kutilgan taxminlardan ham ko'prog'iga ega bo'lish imkonini beradi.




HNX 1509

Kenglikni his eting.

Krossoverning keng saloni birinchi soniyalardanoq sizni lol qoldiradi. Muhim innavatsion yangilik - bu ochiq tarzdagi ramkasiz asboblar panelidir. Aynan u interyerga yuqori texnologiyali premium ko'rinishini beradi va salonda xotirjamlik, xavfsizlik va o'ziga ishonchlilik muhitini yaratadi. Salonda o'rnatilgan, ko'zga ko'rinmas, innovatsion multirejimli shamollatish tizimi sovuq va iliq havoni salon bo'ylab bir tekis taqsimlaydi - shuning uchun siz uning ishlashini sezmaysiz ham, lekin siz mutlaq qulaylikni his qilasiz.



10.25 dyuymli to'liq raqamli asboblar paneli



Konditsionerlashning ilg'or texnologiyasi



Hayot - bu lahzalardan iborat.

Siz yakka tartibdagi turga otlanasizmi yoki oilangiz bilan sayohat qilasizmi, yangi Tuson - har bir safaringizni quvonch va qulaylik lahzalari bilan to'ldira oladigan barcha imkoniyatlarga ega. Barcha yo'lovchilar uchun yetarli darajada joy mo'ljallangan. O'rindiqlarning orqa qatori ixcham tarzda yig'iladi, buning hisobiga bagaj hajmini 1903 litrgacha oshirish imkoni yaratiladi. Shu sababli butun sayohat davomida sizga va hamrohlaringizga qulaylik yaratib beradi.






HNX 1509

Raqamlashtirilgan sayohat Tucson bilan boshlanadi.

Har qanday safarda yoningizda ishonchli hamrohingiz bo'lsa, vaqtning o'tishi sezilmaydi. Futuristik krossoverning axborot-ko'ngilochar tizimi 10.25 dyuymli displey va premium sinfiga mansub KRELL dinamiklariga ega bo'lib, ular sizni zerikib qolishga yo'l qo'ymaydi. Sensorli ekran yordamida qulay boshqaruv va smartfon bilan tezkor sinxronizatsiyalash tufayli siz doimo shaxsiy kontentingizga kira olasiz.

Sensorli displeyli multimedia tizimi



KRELL-dan premium sinfiga mansub audiotizim



Intellektual kruiz-nazorat



*** Jihozlash va jamlama uskunalari bozorga bog'liq tarzda farq qilishi mumkin. Ularning mavjudligini bilish uchun mahalliy dileringizga murojaat qiling.**

Tempni (tezlik sur’atini) Siz belgilaysiz.

Gaz pedalini bosishingiz bilan Siz unutilmas taassurotlar va zamonaviy texnologiyalar olamiga g'arq bo'lasiz. Yangi Tucson Sizning yuragingiz tezroq urishiga majbur qiladi! Hyundai kompaniyasining yangi ishlanmasi - Smartstream dvigatellari oilasi - optimal dinamik xususiyatlar bilan ta’minlaydi. Smartstream dvigatellari oilasidan yangi Tucsonda jamlanadigan dvigatellarning ikkita modifikatsiyasida foydalanish mumkin.



Smartstream dvigatellari

2.0 (benzinli)

149 Maksimal quvvat
l. s./ 6200 ayl/daq

19,6 Maksimal aylanish momenti
kg-m / 4500 ayl/daq

2.5 (benzinli)

190 Maksimal quvvat
l. s./ 6100 ayl/daq

24,7 Maksimal aylanish momenti
kg-m / 4000 ayl/daq

Sinovga tayyor.

Yangi Tucson - shahar krossoveriga qaraganda kattaroqdir. HTRAC to'liq uzatma intellektual tizimi Sizga har qanday ob-havoda va har qanday yo'lda rulni boshqarishda ishonch bag'ishlaydi. Qor, loy, qum Sizni rejalashtirilgan yo'nalishingizdan og'ishga majbur qila olmaydi.



HTRAC to'liq uzatma tizimi

Qiyin ob-havo sharoitida HTRAC to'liq uzatmali boshqaruv tizimi sizga harakatlanishni xotirjam davom ettirishga yordam beradi. Innovatsion elektronika real vaqt rejimida yo'l qoplamasining tezligi va holatini kuzatib boradi. Olingan ma'lumotlarga asoslanib, HTRAC to'rtta g'ildirak orasida aylanish vaqtini avtomatik ravishda taqsimlaydi, agar kerak bo'lsa, g'ildiraklarning har birini biroz tormozlaydi va bu bilan qiyin ob-havo sharoitida yo'l bilan tutishishi va barqaror yo'nalishni ta’minlab beradi.

Yo'lsizlik rejimi (Terrain Mode)

Yangi Tucson har qanday ob-havo sharoitiga osongina moslashadi. Boshqaruv tizimini uchta boshqarish rejimidan "QOR (SNOW)", "LOY(DIRT)", "QUM(GRIT)" ning biriga o'tkazish uchun joystikni burish kifoya.

Harakatlanish rejimi (Drive Mode)

Harakatlanish rejimlarini almashtirishda o'zingizning uslubingizga mos keladigan sozlamani tanlang: NORMAL rejimi - har kungi bemalol haydash uchun, ECO rejimi - maksimal darajada yoqilg'i tejash uchun, SPORT rejimi – tez sur’atda tezlikni oshirish uchun mo'ljallangan, SMART rejimi esa -sizning yaqin orada haydash uslubingiz asosida uzatmalarni almashlash oralig'ini avtomatik ravishda rostlaydi.

Hyundai SmartSense

Chorrahada chap tomonga burilish vaqtida (FCA-JT) to'qnashuvning oldini olish funktsiyasi bilan oldindagi to'siq oldida avtomatik tormozlanish tizimi (FCA).
Avtomatik tormozlanish tizimi endi chorrahada burilish vaqtida to'qnashuvning oldini olish funktsiyasini o'z ichiga oladi. Agar chorrahada chapga burilish vaqtida qarama-qarshi yo'nalishda harakatlanayotgan transport vositasi bilan to'qnashish xavfi yuzaga kelsa, tizim favqulodda tormozlashni faollashtiradi.



Ko'r zonada avtomobil bilan to'qnashuvlarning oldini olish tizimi (BCA).

Avtomobilning orqa qismiga o'rnatilgan radarlar yordamida u orqa zonalardagi holatni kuzatib boradi. Bu haydovchiga yo'ldagi harakatlanish oqimida keskin harakat qilishda avariya holatlarini chetlab o'tishga yordam beradi.

Ko'r zonalarni ko'rish tizimi (BVM).
Burilish ko'rsatkichi yoqilganda, yon oynadagi kameradagi tasvir asboblar paneli displeyida aks etadi, bu esa haydovchiga avtomobil atrofidagi vaziyatni ishonchli nazorat qilishga yordam beradi.





Avtomobilni harakatlanish chizig'ining o'rtasida ushlab turish funktsiyasi (LFA) bilan avtomobilni harakatlanish chizig'ida ushlab turish assistenti (LKA)

O'rnatilgan kamera yordamida yo'l belgilari chiziqlarini kuzatgan holda, avtomobilni chiziq o'rtasida ushlab turishga yordam beradi.



To'xtash old va orqa datchiklari.

To'xtash vaqtida shikastlanishlar oldini olish uchun yordam bergan holda, u avtomobil atrofidagi to'siqlarni aniqlagachda haydovchini ular bilan xavfli darajada yaqinlashayotganligi haqida ogohlantiradi.

Adaptiv kruiz nazorat (SCC)

Haydovchidan hech qanday qo'shimcha harakatlarni talab qilmagan holda, belgilangan tezlik va oldindagi avtomobilgacha bo'lgan masofani saqlab turadi.



*** Jihozlash va jamlama uskunalari bozorga** bog'liq tarzda farq **qilishi mumkin. Ularning mavjudligini bilish uchun mahalliy dileringizga murojaat qiling.**

Asbob-uskunalar



Proyektsiya turidagi faralar (standart jihozlash)



MFR Nurdiodli faralar (optsiya)



Kumush rangli radiator panjarasi



Qora rangli xromlangan radiator panjarasi Dark Black



Orqani ko'rish ko'zgularidagi burilish signalini aks ettiruvchi nurdiodli chiroqlari (moslamalari)



Kobnatsiyalangan orqa faralar (standart jihozlash)



Nurdiodli orqa fonarlar (optsiya)



Eshiklardagi xromlangan moldinglar (optsiya)



Avtomatik ochish tizimi bilan bagajnik eshigi elektr uzatmasi



Lyukli panorama tomi



17-dyuymli yengil qotishmali g’ildirak disklari



19-dyuymli yengil qotishmali g’ildirak disklari



Simsiz zaryadlovchi qurilma



Konditsionerlashning to'liq avtomatik tizimi



Haydovchi o'rindig'ining xotira funktsiyasi



Orqa o'rindiqlarni isitish moslamasi



Shift-by-wire texnologiyali AUAQ (optsiya)



Old o'rindiqlar ventilyatsiyasi



Salonning ambiyent yoritgichi



Walk-In mexanizmi

Interyer ranglari



Qora

Mato

Mato

Charm









Kulrang







Kuzov ranglari



Oq White Cream



Kumush rang
Shimmering Silver



Kulrang Titan
Gray



Qizil Crimson Red



Dengiz to'lqini rangi



Bronza Silky Bronze



To'q kulrang Amazon Gray



Qora Phantom Black

Xarakteristikalari

Turi	TUCSON	
	Smartstream G2.0	Smartstream G2.5
Dvigatel turi	4ta tsilindrli, ikkita yuqori taqsimlovchi val bilan	4ta tsilindrli, ikkita yuqori taqsimlovchi val bilan
Ishchi hajmi,sm^3	1999	2497
Maksimal quvvati, l.s. ayl/daq	149 / 6200	190 / 6100
Maksimal aylanish momenti, kg·m / ayl/daq	19,6 / 4500	24,7 / 4000
Tormozlar		
Old tomondagi	Shamollatiladigan tormoz disklari	
Orqa tomomdagi	Shamollatilmaydigan tormoz disklari	
Osma moslamala		
Old tomondagi	Mustaqil, Makferson ustunlai, ko'ndalang barqarorlik stabilizatori bilan	
Orqa tomondagi	Ko'p richagli	
Shinalar		
	215/65R17, 235/55R18, 235/50R19	
Gabarit o'lchamlar		
O'rindiqdan shiftgacha balandlik, mm	Old tomondan (lyuk bilan) / orqa tomondan (lyuksiz)	1019 (968) / 1002 (990)
Oyoqlar uchun bo'sh joy, mm	Old tomondan / orqa tomondan	1052 / 1050
Yelka darajasida salon kengligi, mm	Old tomondan / orqa tomondan	1464 / 1422

- Yuqoridagi qiymatlar dastlabki baholash natijasida olingan va o'zgartirilishi mumkin.
- Ushbu katalogda keltirilgan uskunalarning bir qismi standart uskunalar ro'yxatiga kiritilmasligi mumkin va qo'shimcha haq evaziga optsiyalar sifatida taqdim etiladi.
- Hyupdai Motor Company oldindan ogohlantirmasdan texnik xarakteristikalar va jamlamalarni o'zgartirish huquqini o'zida saqlab qoladi.
- Chop etish imkoniyati cheklanganligi sababli katalogda ko'rsatilgan ranglar haqiqiy ranglardan biroz farq qilishi mumkin.
- Mavjud ranglar va qoplama materiallar haqida to'liq ma'lumot olish uchun dileringiz bilan maslahatlashing.



Gabarit kenglik 1865
Koleya kengligi * 1615



Gabarit uzunlik 4630
G'ildirak bazasi 2755

Gabarit balandlik

1655



Koleya kengligi* 1622

O'lchov birligi.: mm.* Koleya kengligi • 17-dyuymli g'ildirak disklari (orqadan/oldidan): 1630/1637 • 18-dyuymli g'ildirak disklari (orqadan/oldidan)::1615/1622 • 19-dyuymli g'ildirak disklari (orqadan/oldidan):: 1615/ 1622





Bir oila - ko'p afzalliklar.

Callcenter

HYUNDAIning barcha egalari uchun

Mijozlarni qo'llab-quvvatlash xizmati mavjud, telefon raqami: 1248

Servis

BU YERDA VA HOZIR SIZGA G'AMXO'RLIK QILADI!

Hyundai Auto Asia kompaniyasi o'z mijozlariga yaqinroq bo'lishga intiladi. Shuning uchun biz har doim sizning xavfsizligingiz haqida qayg'uramiz. Sizga g'amxo'rlik qilish - yo'llarda xavfsiz harakatlanish kalitidir. Sizning e'tiboringizga shahringizdagi Hyundai rasmiy dilerlik markazlarida Before Service dasturini taqdim etamiz. Before Service dasturi sizga to'siqlarsiz va xavfsiz tarzda, eng muhimi, avtoulovingizni bepul komplekslashgan profilaktik tekshiruvdan o'tkazishga imkon beradi.

Kafolat

YANGI HYUNDAI AVTOMOBILI UCHUN ISHLAB CHIQARUVCHIDAN KAFOLATI!

Ishlab chiqaruvchining kafolati, Servis (xizmat ko'rsatish) kitobida ko'rsatilgan cheklovlarni hisobga olgan holda, Hyundai rasmiy dilerining avtoulovni birinchi xaridorga sotish (topshirish) paytidan boshlab 3 yil va 100000 km (qaysi biri birinchi kelsa)ni tashkil qiladi, bu haqda Servis kitobida kafolatlarning boshlanish sanasidagi tegishli belgi dalolat beradi. Ishlab chiqaruvchining kafolati, Servis kitobida ko'rsatilgan Hyundai avtoulovi kafolati shartlariga kiradigan nosozlik yuzaga kelgan taqdirda, mashinani eng yaqin Hyundai rasmiy dileriga yetkazib berish (evakuatsiya qilish) uchun amal qiladi, faqat agar bunday nosozlik xususiyati O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va transport vositalarini ishlatish bo'yicha qo'llanma talablariga ko'ra avtoulovni ta'mirlash joyiga o'zi yurib borishi bilan yetkazib berilishi bunga yo'l qo'ymasa.

"HYUNDAI AUTO ASIA" MChj QK
Brendning O'zbekistondagi rasmiy distribyuteri
www.hyundai-auto.uz

Hyundai Premium Sergeli
Tel.: +998 78 122 12 22
O'zbekiston, Toshkent sh., Sergeli tumani, THAY, 68-uy

Hyundai Qushbegi
Tel.: +998 78 122 07 77
O'zbekiston, Toshkent sh., Yakkasaroy tumani, Kichik halqa yo'li ko'ch, 22 V-uy

Hyundai Tashkent City
Tel.: +998 78 122 08 88
O'zbekiston, Toshkent sh., Shayxontoxur tumani, Xadra ko'ch., 2\1 Xalqaro biznes markazi «Tashkent city»

Hyundai Yunusobod
Tel.: +998 71 225 89 89
O'zbekiston, Toshkent sh., Yunusobod tumani A.Temur sh.ko'ch., 77

Diler haqida ma'lumot

3 YIL KAFOLAT 100 000 км

Bu risola chop etish uchun topshirish vaqtida haqiqiy edi. Biroq, "HYUNDAI AUTO ASIA" MChJ QK kompaniyasi mahsulotni doimiy ravishda takomillashtirish va yaxshilanish siyosatiga amal qilganligi sababli, ushbu nashrda tasvirlangan modellarning texnik xususiyatlari, ranglari va jihozlarini istalgan vaqtda oldindan ogohlantirmasdan o'zgartirish huquqini o'zida saqlab qoladi. Ranglarning kombinatsiyasi va modellar jamlamasi ularnig haqiqiy mavjudligida foydalanilishi mumkin. Dolzarb ma'lumot uchun Hyundai rasmiy dilerlik markazlariga murojaat qiling.